

## XORAZM VILOYATI SHAROITIDA TERMITLARNING TARQALISHI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

*Latipova Dildora Madiyorovna*

*Xorazm viloyati FVB HFXO'M o`qituvchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi Yangiobod shaharchasi misolida termitlarning tarqalishi va ularga qarshi kurash choralari muhokama etiladi.

**Kalit soʻzlar:** termit, qozon, quvur, sallyuloza, sinch, turar joylar.

### KIRISH

Termitlarni oʻrganish tarixiga nazartashlaydigan boʻlsak, tropik mamlakatlarda termitlar insonga qadim-qadimdan maʼlum boʻlgan. T.Ye.Snuder (1956) maʼlumotlariga koʻra, termitlar yogʻoch buyumlarni yemirishi toʻgʻrisida bizgacha yetib kelgan ilk qoʻlyozma bu qadimgi (miloddan avvalgi taxminan 1350 yil oldin) Samxit Rigved hisoblanadi. Garchand qadimgi misr qoʻlyozmalarida termitlar toʻgʻrisida biror-bir maʼlumot boʻlmasada, taxminan eramizdan 2000 yil oldingi yogʻoch tobutlarda termitlarning kemirgan oʻrni aniqlangan. Grek geografi Pafsoniy (eramizdan taxminan 200 yil oldin) eslatmalariga qaraganda, u Pefnos orolining Lakoniy qoʻltigʻiqirgʻoqlarida och yoki oq rangli chumolilarni kuzatgan ekan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Afrika tadqiqotchilaridan biri Kaldo Masto 1455 yil Senegal orolida “Oq chumolilar” ogʻzida tuproq tashib mahalliy non yopiladigan tandirlarsingari uyalar qurganini kuzatgan. Admerar Vander Xaden esa 1595 yilda Gvineyada may oylarida “qumursqalar” tomonidan qurilgan aylanasi 5-6 metr keladigan qizgʻish konus shaklidagi uyalarni uchratgan va ularni ochib koʻrganida asalarilar singari tinimsiz harakatdagi “qumursqalarni” koʻrgan.

Soʻzsiz bu maʼlumotlar barchasi termitlarga taaluqli boʻlsada, ammo eski adabiyotlarda termit nomi qoʻllanilmagan [4].

“Termes” soʻzini dastlab K.Linney “Systema nature” (1758) asarining oʻninchinashrida qoʻllagan. ”Termitinae” soʻzini esa ilk bor R.A.Latreille (1802) oilani belgilash nuqtai nazardan qoʻllagan boʻlsa, A.Brulle (1832) esa “Isoptera” atamasini qoʻllab termitlarni shusistematik guruhga birlashtirdi. X.A.Xagen (1855-1860) biologik tadqiqotlari natijasida termitlarning suvaraklarga yaqinligini koʻrsata oldi. Termitlar toʻgʻrisidagi dastlabki ilmiy xabarlar matbuotda bundan 235 yil oldin paydo boʻldi. Shundan soʻng mualliflar termitlar yetkazadigan katta talofatlar toʻgʻrisida ham yoza boshlagan. Shu bilan bir qatorda termitlarga qarshi

oddiy kurash choralari, jumladan ularning sonini kamaytirishda ayniqsa kataklifus avlodiga mansub yirtqich chumolilarning o‘rni benihoya kattaligi aytib o‘tilgan [3].

Shu ma’lumotlarga tayangan holda hozirgi kunga kelib, Xorazm vohasi Xiva tumanida ham aynan Turkiston termiti (*A.turkestanicus*) ko‘plab uchrashi kuzatildi va shu tur termitlarni turar joy, jamoat binolariga yetkazayotgan zarari o‘rganildi. Xiva tumani Yangiobod shaharchasidagi aholi turar joylarida va jamoat binolarida olib borilgan kuzatuvlar natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Yangiobod shaharchasi Guliston mahallasiga qarashli Qadam Matkarim, Bunyodkor, Madamin Matkarim, Jomiy ko‘chalar va Al-Xorazmiy maktabi va Bulbulcha bolalar bog‘chasida termitlarning tarqalishi va zarari o‘rganildi. Termitlarning tarqalishi va zarar keltirish darajasi bo‘yicha Madamin Matkarim ko‘chasida yuqori zararlanish qayd qilindi. Buning sabab tariqasida turar joylarning qurilishi deyarli sinch (nigirik) uylar ekanligini ko‘rsatish mumkin. Tabiiyki termitlarning sevimli ozuqasi bo‘lgan sellyuloza aynan devor oralig‘ida joylashganligi ham ularga ozuqa ko‘pligi va ko‘payish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Tarqalishi va zarari bo‘yicha Bunyodkor ko‘chasidagi xonadonlarda zararlanish Madamin Matkarim ko‘chasidagiga nisbatan kamroq ekanligi qayd kilindi. Bu ko‘chada ham Madamin Matkarim ko‘chasida keltirib o‘tilgan xulosalarga qo‘shimcha holdashuni aytish mumkinki, termitlar o‘zlari uchun himoya sifatida qo‘llaydigan loy suvoqlari harorat yuqori bo‘lgan isitgich qozon va quvurlari atroflarida ko‘p kuzatildi. Qadam Matkarim va Jomiy ko‘chalarida olib borilgan kuzatuvlar natijasida shunday xulosa qilish mumkin. Bahor oylari termitlarning ko‘payadigan mavsumi bo‘lganligi tufayli, tashqi sharoitda haroratning pastligi, xonadonlarda esa isitish davom etayotganligi termit lichinkalarini ko‘p miqdorda qayd qilinishiga sababdir.

**Xiva tumani Yangiobod shaharchasi Guliston mahallasidagi aholi turar joylari va jamoat binolarida termitlarning tarqalishi**

<b>№</b>	<b>Ko‘cha nomi</b>	<b>Zararlangan xonadonlarning umumiy soni</b>	<b>Shundan o‘rganilgan xonadonlar soni</b>	<b>Zararlangan xonalar</b>	<b>Zararlanish darajasi</b>
1	Qadam Matkarim ko‘chasi	5 ta xonadon	76-uy 78-uy 80-uy 82-uy 40-uy	Isitgich quvuri atrofida, yerto‘lada Molxona va tandir xonada Isitgich va hammomda Hammomning eshik romida Isitgich quvurlarining atrofida, yerto‘lada	Kam

2	Bunyodk or ko‘chasi	54 ta xonadon	1-uy 2-uy 5-uy 6-uy 9-uy 10-uy 13-uy 14-uy 17-uy 18-uy	Hammom, isitgich quvuri atrofida Sinch uylarning yog‘och qismida Yer to‘laning yog‘och qismlarida Eshik, deraza romlari, hammomda Molxona, isitgich quvuri atrofida Hammom, deraza va eshik romlarida Yer to‘ladagi yog‘och qismlarda Hammom, eshik romlari, yer to‘lada Sinch uylarning yog‘och qismida Yerto‘la va hammomda	Yuqori
3	Madamin Matkarim ko‘chasi	62 ta xonadon	1-uy 2-uy 3-uy 4-uy 8-uy 9-uy 10-uy 18-uy 25-uy 28-uy	Yer to‘la va eshik romlarida Sinch uylarning yog‘och qismlarida Hammom, isitgich quvurlari atrofida Yer to‘laning yog‘och qismlarida Deraza, eshik romlari, yer to‘lada Yer to‘la, hammom va oshxonada Sinch uylarning yog‘och qismida Xonadagi yog‘och qismlarning barchasida Xonadagi yog‘och qismlarning barchasida Yer to‘la, yotoxona eshik romida, oshxonada	Yuqori
4	Jomiy ko‘chasi	15 ta xonadon	1-uy 2-uy 3-uy 4-uy 5-uy 6-uy 7-uy 9-uy	Isitgich quvurlari atrofida Yer to‘laning yog‘och qismlarida Garajning shift qismida, oshxonada Tandir xonaning yog‘och qismlarida Hammomning deraza va eshik romlarida Isitgich quvuri atrofida Yer to‘laning yog‘och qismlarida Oshxona, garajning yog‘och shiftida	Yuqori
5	11-sonli Al- Xorazmiy maktabi	Zararlanish belgilari kuzatilmadi			
6	Bulbulcha bolalar bog‘chasi	Zararlanish belgilari kuzatilmadi			

### XULOSA VA MUNOZARA

Tadqiqot olib borilgan jamoat binolaridan 11-sonli Al-Xorazmiy maktabida va Bulbulcha bolalar bog‘chasida termitlarning tarqalishi vazarari kuzatilmadi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Abdullaev I.I. Turkiston termitining (*Anacanthemes turkestanicus* Jacobson) entomopatogen zamburug'larga moyilligi. O'zbekiston biologiyasijurnali. – T., 2011. – №2. – B. 49-52.
2. Baeva V., Mo'minov N., Lukyanova S., Pokivaylov A. Tojikiston Termitlari (Isoptera) va ularga qarshi kurash choralari. – Dushanbe, 2013 yil.
3. Qirol J.B. oq deb ataladigan tabiiy tarix; hisoblanadi. Shikastlangan Berlin Ges. Naturf-Freunde, 2019 yil.
4. Weidner H. Isoptera (Termitlar) - Zoologiya bo'yicha qo'llanma, Chuqur qirollik qabilalarining tabiiy tarixi. - Berlin, 2010 yil.